FAN VA TA’LIM YANGILIKLARI
ILMIY-METODIK JURNAL
ISSN 3093-8694 ◆ saen.uz
2026-yil
11-son

UDK: 316.4:37.014:314.7

**Abduvaliev Fatxulla,**
Toshkent davlat texnika universiteti o‘qituvchisi,
sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

# TA’LIMNING GLOBALLASHUV DAVRIDA MILLIY QADRIYATLARGA TRANSFORMATSIYASI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada muallif ta’lim migratsiyasi tushunchasining ijtimoiy-iqtisodiy fanlar tizimidagi talqinlarini yoritib, “intellektual migratsiya”, “ta’lim migratsiyasi”, “aql egalari”ning mamlakatdan chiqib ketishi kabi ilmiy atamalarni ilgari suradi hamda aholining mobil, ya’ni doimiy harakatdagi qatlamlarining ijtimoiy xususiyatlarini qiyosiy sotsiologik jihatdan tahlil qiladi. Ta’lim yoki intellektual migratsiyaning tarixiy shakllanish bosqichlari, uning ilmiy asoslari, davriy (sirkulyatsion) ahamiyati, vujudga kelish mezonlari va ijtimoiy sabablari ilmiy jihatdan tasniflanadi. Jamiyatning axborotlashuvi va dunyoning globallashuvi natijasida migratsiya mavzusi, ayniqsa, so‘nggi yigirma yil ichida ko‘plab ilmiy izlanuvchilar va tadqiqotchilarning alohida tadqiqot obyektiga aylandi. Muammoning ko‘lami kengayib, ommaviy tus olgani sari keng ilmiy jamoatchilik o‘rtasida migratsiyaga oid bahs-munozaralar ilmiy muhokamalarning asosiy mavzularidan biriga aylandi. Muallif zamonaviy mumtoz sotsiologiya vakillari va ekspertlari tomonidan ilgari surilayotgan “yuqori kasbiy mahoratga ega bo‘lgan kadrlar migratsiyasi”, “intellektual oqim”, “intellektual salohiyatning chiqib ketishi”, “iste’dodli va aqlli kishilarning xorijga chiqib ketishi” kabi qarashlarni sotsiologik nuqtayi nazardan tizimli tahlil qiladi.

**Kalit so‘zlar:** migratsiya, intellektual migratsiya, ta’lim migratsiyasi, innovatsiya, globallashuv, integratsiya, multikulturalizm, identiklik, mentalitet, stereotip.

# ТРАНСФОРМАЦИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ

**Аннотация.** В данной статье автор рассматривает концепцию образовательной миграции в системе социально-экономических наук, выдвигая такие научные понятия, как «интеллектуальная миграция», «образовательная миграция» и «эмиграция интеллектуалов» из страны. Проводится сравнительный социологический анализ социальных характеристик мобильных слоёв населения, то есть групп, находящихся в состоянии постоянного перемещения. Рассматриваются исторические этапы формирования образовательной и интеллектуальной миграции, её научные основы, значение периодической циркуляции, а также научно классифицируются критерии её возникновения и социальные причины. Информатизация общества и глобализация мира обусловили превращение миграции, особенно за последние двадцать лет, в самостоятельный объект исследования ряда учёных и исследователей. По мере увеличения масштабов и распространения данной проблемы дискуссии широкого научного сообщества по вопросам миграции стали одной из центральных тем научных обсуждений. Автор системно анализирует с социологической точки зрения взгляды, выдвигаемые представителями современной классической социо-

логии и экспертами, в частности такие понятия, как «миграция высококвалифицированных кадров», «интеллектуальный поток», «утечка интеллектуального потенциала», «выезд талантливых и одарённых людей за рубеж».

**Ключевые слова:** миграция, интеллектуальная миграция, образовательная миграция, инновации, глобализация, интеграция, мультикультурализм, идентичность, менталитет, стереотип.

## TRANSFORMATION OF NATIONAL VALUES IN THE ERA OF EDUCATIONAL GLOBALIZATION

**Abstract.** In this article, the author examines the concept of educational migration within the system of socio-economic sciences, introducing such scientific terms as "intellectual migration," "educational migration," and the emigration of intellectuals from their home countries. A comparative sociological analysis is conducted of the social characteristics of mobile population groups, that is, those who are constantly on the move. The historical stages of the formation of educational and intellectual migration, its scientific foundations, the significance of periodic circulation, the criteria underlying its emergence, and its social causes are scientifically classified. The informatization of society and the globalization of the world have made migration an important subject of research for numerous scholars and researchers, particularly over the past two decades. As the scale of this issue has expanded and become increasingly widespread, debates within the broader scientific community concerning migration have become a central topic of academic discussion. The author systematically analyzes, from a sociological perspective, various approaches advanced by contemporary classical sociologists and experts, including "the migration of highly qualified personnel," "intellectual flows," "the brain drain," and "the emigration of talented and intellectually gifted individuals."

**Keywords:** migration, intellectual migration, educational migration, innovation, globalization, integration, multiculturalism, identity, mentality, stereotype.

## KIRISH

"Globallashuv" atamasi bugungi zamonaviy jamiyatda eng ko'p qo'llaniladigan, mazmun-mohiyati jihatidan esa bilim, ko'nikma, tajriba va fikrlash imkoniyatlariga ega bo'lgan kishilarning deyarli barchasiga tanish tushunchaga aylandi. Yer yuzidagi mavjud jamiyatlarning ushbu jarayondagi ishtiroki esa, istasa-istamasa, o'z-o'zidan majburiy tus olib bormoqda. Yer yuzi bir qarashda ulkan sayyorani anglatsa, ikkinchi tomondan, u shu qadar kichrayib bormoqdaki, uning istalgan nuqtasi bilan bog'lanish uchun sanoqli daqiqa va soniyalar kifoya qilmoqda. Internet va boshqa virtual aloqa vositalari esa globallashuv jarayoniga qarshi turishga intilayotgan kishilarni ham muayyan ma'noda chorasiz ahvolga solib qo'ymoqda.

Biroq bizning maqsadimiz globallashuvni inkor etish yoki uni targ'ib qilish emas, balki ushbu jarayonning holatini ilmiy jihatdan tahlil qilishdan iborat bo'lishi kerak. Jamiyat jahon globallashuvi tarmog'iga to'liq singib ketishi kerakmi yoki global sharoitda o'zligini namoyon eta olishi lozimmi? Xullas, globallashuvda ishtirok etish bir tomondan manfaatlar, ikkinchi tomondan qiziqishlar bilan bog'liq

bo‘lsa, uchinchi muhim jihat ham borki, u ham bo‘lsa, qanday qilib milliy o‘zlikni saqlab qolish masalasidir.

## ADABIYOTLAR TAHLILI

Ta’lim sohasiga oid adabiyotlarning nazariy-metodologik asoslari globallashuv jarayonlari bilan bog‘liq holda tahlil etilar ekan, bunda milliy qadriyatlarning transformatsiyalashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Globallashgan dunyoda ijtimoiy voqeliklar turli tahdidlar bilan bog‘liq hodisalarni izchil yoritish orqali mustahkamlanadi. Shu asosda mamlakatda ilm-fanni yanada rivojlantirish, yuqori kasbiy malakaga ega mutaxassislarni yetishtirish, universitetlar va ilmiy tadqiqot institutlarining huquq va manfaatlarini himoya qilish tizimi takomillashtirildi. Bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar izchil davom ettirilmoqda.

Migratsiyaning sotsial voqeliklari va u bilan bog‘liq tasniflarga nisbatan an’anaviy qarashlar hamda baholash prognozlari o‘rnida yangicha ilmiy yondashuvlar asosida xulosalar chiqarishga imkon beradigan dunyoqarash shakllanmoqda. Bunday yangicha ilmiy yondashuvga bo‘lgan ehtiyoj bugungi ijtimoiy taraqqiyot bosqichida mamlakatning demokratik siyosati va jamiyat a’zolarining manfaatlarini hisobga olgan holda rivojlanib, jadal sur’atlarda takomillashib bormoqda. Chunki migratsiyaning har qanday shaklini chuqur anglash uning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jihatlardagi barqarorlikni ta’minlashga ta’sir etuvchi omillardan birini tashkil etadi.

Ko‘pqirrali dunyoning intellektual qiyofasi uzoq yillardan beri “aqlli” migratsiya ko‘rinishida, ya’ni yuqori sifatli ishchi kuchining harakati sifatida namoyon bo‘lib, ijtimoiy-ma’naviy hayotga o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Shuningdek, zamonaviy migratsiya jarayonlarining mohiyati, tendensiyalari va ularning oqibatida yuzaga kelayotgan global muammolar jamiyat hayotidagi o‘zgarishlarni, xususan, milliy mentalitet va identiklikdagi o‘zgaruvchan hodisalarni o‘rganish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Yoshlar intellektual migratsiyasining turli shakl va yo‘nalishlarda namoyon bo‘lishi, uning yoshlar, xususan, talabalar hayotida “xalqaro migrant”, “intellektual sirkulyatsiya”, “intellektual oqim” ko‘rsatkichlari orqali ijtimoiy muhitning harakatlanuvchi, mobil hodisasi sifatida namoyon bo‘lishi hamda o‘zaro ilmiy va madaniy integratsiya kontekstida kechishi mavjud muammoning jiddiy ijtimoiy hodisa ekanligini anglatadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

2008–2018-yillarda migrantlarning akkulturatsiya jarayoni va ularni qabul qiluvchi jamiyatlar nuqtayi nazaridan tahlil qilingan statistik-sotsiologik ko‘rsatkichlar indikatorlarining dinamikasi o‘rganildi. Tadqiqot natijalari migrantlarning ehtiyojlari, maqsadlari va manfaatlari xilma-xilligini, shuningdek, ularning moddiy va ma’naviy ehtiyojlari dinamik o‘sish qonuniyatlariga muvofiq ravishda tadrijiy o‘zgarib borishini ko‘rsatdi [1;].

Bu jarayonda migrantlarning milliy o‘zligini (identikligini), konfessional mansubligini va sotsial maqomini anglashi ularning ijtimoiylashuv darajasi hamda xarakteriga mos ravishda shakllanadi. Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy munosabatlar ta’sirida shakllangan ijtimoiylashgan migrantning sotsial qiyofasi, ongi va turmush tarzining ma’naviy-axloqiy hamda sotsiologik jihatlarini umumlashtirish va mavzu doirasida tadqiq etish masalasi kun tartibiga qo‘yilmoqda.

Zamonaviy ijtimoiy fanlar tizimida intellektual migratsiya, xususan, ta’lim sohasida yoshlar migratsiyasi dinamikasining oshib borishi ushbu muammoning ilmiy fenomenini belgilab beruvchi nazariy-metodologik jihatlarning qay darajada yoritilganligiga bo‘lgan e’tiborni kuchaytirmoqda.

Umuman olganda, dunyo miqyosida globallashuv va integratsiya jarayonlarining kechishi, ta’lim tizimining xalqaro darajada umumlashib borishi intellektual migratsiya dinamikasi va transformatsiyasiga keskin ta’sir o‘tkaza boshladi. Zamonaviy dunyo manzarasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, intellektual migratsiyaning jadal rivojlanib borayotganligini kuzatish mumkin. Uning rivojlanishi “ichki”, “tashqi” va “mayoqsimon” shakllarda oddiylikdan murakkablikka qarab kengayib bormoqda.

Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, 2030-yilga borib, Yer yuzi aholisining 4 milliarddan ziyodi rivojlangan va taraqqiy etgan shaharlarda istiqomat qilishi kutilmoqda [2; 8]. Ushbu statistik ma’lumotlar dunyo aholisining qariyb 50 foizini tashkil etadi. Biroq masalaning ikkinchi jihati ham mavjud: aholining qolgan qismi o‘rtasida yuqori darajadagi ta’lim va turmush sifati o‘zgarishi dinamikasining qay darajada kechishini tadqiq etish yangi ilmiy muammolarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi.

Buning sababi shundaki, intellektual oqim ichki migratsiya sharoitida qishloq joylari, tumanlar, kichik va o‘rta shaharlardan poytaxt yoki yirik shaharlarga qarab yo‘naladi. Tashqi migratsiya sharoitida esa rivojlanayotgan yoki qisman rivojlangan mamlakatlar universitetlari va tadqiqot markazlarida faoliyat yuritayotgan yuqori kasbiy mahoratga ega ilmiy xodimlar (professor-o‘qituvchilar) hamda iste’dodli talaba yoshlarning taraqqiy etgan, salohiyati va imkoniyatlari yuqori bo‘lgan mamlakatlardagi universitetlarga chiqib ketish tendensiyasi kuchayib bormoqda.

## NATIJALAR

Xalqaro Nobel mukofoti laureati J. Stiglitz o‘zining “Globallashuv: xavotirli yo‘nalishlar” kitobida quyidagilarni yozadi: “U yoki bu xalqning globallashuv jarayonidan qanday ne’matlarni tatib ko‘rishi, asosan, milliy hukumatning faoliyatiga bog‘liq bo‘ladi. Ko‘pchilik bozor iqtisodiyoti jarayonida davlatning rolini oshirishni yetakchi g‘oya deb hisoblaydi. Ular bir narsani hisobga olishni istamaydilar: bozor munosabatlari qonuniyatining o‘zi barcha ijtimoiy muammolar yechimini o‘z joyiga qo‘yadi. Davlatning zimmasida esa tengsizlik, ishsizlik, atrof-muhitning ifloslanishi kabi muammolarni hal etish asosiy vazifa bo‘lib qolishi kerak” [3; 11]. Bu masalaning bir tomoni.

Masalaning ikkinchi tomoni shundan iboratki, ko‘pchilik ekspertlar global-lashuv jarayonini, asosan, xalqaro moliyaviy va iqtisodiy yetakchi kuchlarning manfaatlariga xizmat qilishi bilan izohlaydilar. Avvalgi davrlarda mavjud davlatlarning chegaralari hukumatlarning iqtisodiy-siyosiy holatlarga yo‘naltirilgan huquqiy tartib va qoidalari asosida bir-biriga muvofiqlashtirilgan bo‘lsa, hozirgi vaqtda ularning taqdiri tobora jahon iqtisodiy jarayonlariga bog‘liq bo‘lib bormoqda.

Ma’lumki, hozirgi vaqtda global iqtisodiyotni jadal rivojlantirish tendensiyasi kuzatilmoqda. Zamonaviy iqtisodiyot virtual iqtisodiyot deb ham nomlanmoqda. Ushbu jarayonni shakllantirishning asosiy ishtirokchilari sifatida “Katta sakkizlik” (aslida “Katta yettilik”) davlatlari namoyon bo‘lmoqda. Chunki ularning nazoratida jahon iqtisodiyotiga ta’sir ko‘rsatuvchi xalqaro institutlar mavjud. Bular Xalqaro valyuta jamg‘armasi (XVJ), Jahon banki (JB) va Jahon savdo tashkiloti (JST) hisoblanadi.

Shu sababli globallashuvni faqatgina texnologik-iqtisodiy holat sifatida emas, balki ijtimoiy-siyosiy jarayon sifatida ham baholashimiz kerak. “Sotsiologik tadqiqotlar” jurnalining 2024-yil 3-sonidagi ma’lumotlarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, “jahonning mazkur rivojlangan davlatlaridagi transmilliy (TMK) va mul-tinatsional korporatsiyalar (MMK) butun xalqaro savdoning 70 foizi va ishlab chiqarishning 30 foizini boshqarayotgani” [4; 5] turli tengsizliklarning yuzaga kelishiga sabab bo‘layotganligini misol sifatida keltirish mumkin. Shu bilan birga, transmilliy korporatsiyalar davlatlar bilan bir qatorda xalqaro huquqning mustaqil subyekti bo‘lishga intilayotganligini ham namoyon etmoqda.

Mavzudan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak, milliy qadriyatlarning globallashuv jarayonidagi o‘rni va ahamiyati, asosan, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga bo‘lgan talab va ehtiyojlarga qarab o‘zgaradi, o‘z ahamiyatini yo‘qotadi yoki boshqa qadriyatlar bilan uyg‘unlashadi. Eronlik adib Ali Ahmad buni o‘zining “G‘arbparastlik” kitobida “ishlab chiqaruvchi” va “iste’molchi” kategoriyalari aso-sida tahlil etadi:

“Dunyoda ikki qutb bir-biriga qarshi turibdi – birinchisi mashinalarni yaratadi, ishlab chiqaradi va sotadi; ikkinchisi foydalanadi, iste’mol qiladi, nari borsa, uning hujjatlarini o‘rganadi. Shu sababli birinchisi “yaratuvchi”, ikkinchisi esa “iste’mol-chi”. Bugungi kunda G‘arb ishlab chiqaruvchi, Sharq iste’molchi ekan, har qancha harakat qilinmasin, milliy qadriyatlar sofligini saqlab qolish qiyin. Hozirgacha bunga faqat Yaponiya erishdi, xolos” [5; 98].

Ko‘pincha Yaponiya, Hindiston, Xitoy va Janubiy Koreya kabi mamlakatlarning globallashuv sharoitida o‘z milliy qadriyatlarini saqlab qolganligi haqida misollar keltiriladi. Biroq bu holat biz o‘ylaganchalik sodda emas. To‘g‘ri, ushbu davlatlarning globallashuv jarayonida faol ishtirok etayotganligini inkor etib bo‘lmaydi. Buning bir qancha sabablari mavjud.

Birinchidan, bu mamlakatlar boshqa davlatlarning mustamlakasi va ta’siri ostida bo‘lgan davrlarda ham turli “madaniy inqiloblar” ta’siridan (alifboning o‘zgartirilmasligi, kutubxonalarning yo‘q qilinmasligi va shu kabilar) muayyan darajada saqlanib qolgan yoki ularning salbiy ta’siriga to‘liq berilmagan.

Ikkinchidan, mustamlakachilikdan ozod bo‘lganlaridan so‘ng, ularning ikkinchi va uchinchi avlodlari zamonaviy jamiyatda faol ishtirok eta boshlagan.

Uchinchidan, rivojlangan davlatlarning mustamlakasi bo‘lganligi natijasida, keyinchalik ulardagi siyosiy, iqtisodiy va boshqaruv munosabatlarini o‘z tajribalarida qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘lgan.

To‘rtinchidan, men bu holatni globallashuvning eng asosiy xususiyatlaridan biri sifatida qarayman. Ya’ni mazkur mamlakatlarning bugungi kundagi yosh va tajribali intellektual fuqarolari ingliz tilida faoliyat yuritadigan professional muhit va xalqaro tarmoqlarda faol ishtirok etmoqdalar.

Dunyoning globallashuvi bugungi kunda yagona bir hudud yoki qutb doirasida kechmasligi tobora oydinlashib bormoqda. Buning sabablari nafaqat iqtisodiy tengsizlik va geosiyosiy holat bilan, balki madaniyatlarning turfa xilligi, bir necha etnos va dinlarning mavjudligi, kishilar mentaliteti hamda psixologiyasining bir-biridan farq qilishi bilan ham izohlanadi.

Yana bir amerikalik tadqiqotchi S. Huntington globallashuv jarayonida sivilizatsiyalar to‘qnashuvi yuzaga kelishi mumkinligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, “globallashuvning dunyoning turli mintaqalarida vujudga kelishi va shakllanishi G‘arbning, yanada aniqroq aytganda, xristian sivilizatsiyasining tarqalishi (ekspansiyasi) izlari bo‘lib, uning qadriyatlari va institutlari o‘zga madaniyatlar, an’analar hamda tizimlar mavjud bo‘lgan sharoitda tenglik asosida faoliyat yuritishi haqiqatdan yiroqdir” [6; 64–65].

Rossiyalik mutaxassis Yu. Yakovets esa “sivilizatsiyalar o‘rtasidagi to‘qnashuv xavfining o‘sib borishi insoniyatning o‘zini saqlab qolish yo‘lini topa olmayotganligini ko‘rsatadi. Bunday sharoitda sivilizatsiyalar va davlatlarning hamkorlik hamda sheriklik qilishiga qaratilgan turli davra suhbatlari strategiyasi va mexanizmlarini ishlab chiqish bilan cheklanib qolish oxir-oqibatda odamzodning “o‘z joniga qasd qilishi” bilan barobardir” [7; 3–4], degan fikrni ilgari suradi.

Ammo globallashuv nazariyotchilaridan biri hisoblanadigan F. Fukuyama quyidagi fikrlarni bildiradi: “...Men ishonamanki, kishilik jamiyatining tarixiy rivojlanish munosabatlari demokratik boshqaruv shakllariga yo‘naltiriladi, lekin men ushbu jarayonni tezlashtirish kerak, deb hisoblamayman, ayniqsa, harbiy kuch ishlatish va boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashish orqali” [8; 64].

Shu bilan birga, F. Fukuyama o‘z asarlarida butun dunyo ertami yoki kechmi G‘arb boshqaruv modelini tarixiy jarayon sifatida ixtiyoriy ravishda qabul qilishiga ishonch bildiradi.

Tabiiyki, bunday fikr va munosabatlar ijtimoiy-madaniy noroziliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Ayniqsa, Yer sharining barcha hududlarida keng tarqalgan va o‘z o‘rniga ega bo‘lgan yirik jahon dinlari — islom va buddizm namoyandalari,

shuningdek, xristianlikning G‘arb mamlakatlaridan tashqarida o‘ziga xos dunyoqarashi bilan ajralib turuvchi xalq vakillari bunday holatdan aslo qoniqmaydilar.

Oqibatda globallashuv va integratsiya jarayonlarida ishtirok etishning o‘ziga xos nazariyalarini ilgari surish boshlandi. Bular quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘lmoqda:

a) Diniy mansublik asosida. Masalan, musulmon dunyosi mamlakatlarining globallashuvi, buddizm-konfutsiychilik mamlakatlarining integratsiyalashuvi;

b) Etnik mansublik asosida. Masalan, turkiyzabon davlatlar va xalqlarning globallashuvi hamda integratsiyalashuvi, slavyan xalqlari va mamlakatlarining integratsiyalashuvi, arab mamlakatlarining globallashuvi va boshqalar;

v) Mentalitet va ruhiy jihatdan yaqinlik asosida. Masalan, Yevropa Ittifoqi integratsiyasi, Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari integratsiyasi, Lotin Amerikasi xalqlari integratsiyasi, Markaziy Osiyo xalqlari integratsiyasi va shu kabilar.

Shu o‘rinda so‘nggi yillarda tadqiqotchilar tomonidan ilgari surilayotgan “Katta Markaziy Osiyo integratsiyasi” (Eron, Pokiston, Afg‘oniston, O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Mongoliya va Rossiya hamda Xitoyning ushbu davlatlar bilan chegaradosh hududlarida iqtisodiy zonalar tashkil etish taklifi), shuningdek, ikkinchi bir guruh tadqiqotchilar ilgari surayotgan “Katta O‘rta Osiyo” (Qozog‘iston, O‘zbekiston, Qirg‘iziston, Turkmaniston, Tojikiston, Mongoliya va Markaziy Rossiya hududlari) integratsiyasi g‘oyalari zamonaviy globallashuvning o‘zgaruvchan istiqbollari to‘g‘risida ilmiy prognozlarni ilgari surishga asos bo‘lmoqda.

Yaqin munosabatlar asosida kechayotgan globallashuv va integratsiya jarayonlarining kelib chiqishiga turtki berayotgan ayrim fikr va nazariyalar negizida butun dunyo ijtimoiy-siyosiy holatini bir tomondan turib boshqarishga bo‘lgan urinishlar ham mavjud. Masalan, taniqli siyosatshunos Z. Bjezinskiyning fikriga ko‘ra, globallashuv va milliy davlatlar o‘rtasidagi manfaatlar uyg‘unligi faqatgina AQShning ko‘magida amalga oshirilishi kerak.

Z. Bjezinskiy yozadi: “Amerikaning qudratli davlat ekanligi, u haqmi yoki nohaqmi, bundan qat’i nazar, unga har qanday mavjud qarama-qarshiliklarni hal qilish huquqini beradi” [9; 175–176].

Bunday g‘oyalarning ilgari surilishining o‘zi milliy davlatlar o‘rtasida muayyan darajada tashvish va xavotirlarni yuzaga keltirishi tabiiy. Chunki dunyo bir qutbli bo‘lishi kerakmi yoki ko‘p qutbli? Agar u bir qutbli bo‘ladigan bo‘lsa, milliy madaniyatlarning holati qay darajada kechadi?

Globallashuv nazariyasi asoschilari bu savollarga ham javob topishga harakat qiladilar. Xususan, tadqiqotchi M. Castells bu xususda quyidagi fikrlarni ilgari suradi: “Globallashuvda davlatlar yo‘q bo‘lib ketmaydi. Axborotlar asrida ular faqat o‘z maqomini o‘zgartirishi mumkin, xolos” [10; 511].

Shuningdek, M. Castells global dunyoni ma’lum bir model asosida shakllantirish mumkin emasligini asoslashga harakat qiladi. Bu xususda u shunday yozadi: “...Men postindustrializm nazariyasi namoyandalarining dunyo AQSh va

G‘arbiy Yevropaga o‘xshagan bo‘lishi kerak, degan etnotsentrik qarashlariga tanqidiy ko‘z bilan qarayman” [11; 22].

Biroq globallashuvning aksariyat mualliflari postindustrializm nazariyotchilari bilan to‘liq hamfikr bo‘lib qolmoqdalar.

Ta’lim sohasida vujudga kelgan intellektual migratsiya shakllaridan yana biri — bu alohida fenomen sifatida o‘ziga xos ahamiyat kasb etuvchi virtual migratsiyadir. Asosan masofaviy ta’limga asoslangan, xorijda ta’lim olish imkoniyatini nisbatan qisqa muddatda amalga oshirishga xizmat qiluvchi ushbu migratsiya ko‘rinishi jahon pandemiyasi sharoitida yanada rivojlandi. Natijada ushbu tizim xalqaro tarmoqlar bilan birlasha boshladi.

XX asrning 60-yillarida bir guruh jamiyatshunoslar jamiyatda texnotuzilmaviy jarayon boshlanganligi haqidagi g‘oyalarni ilgari surdilar. Texnotuzilmaviylik vakillari — zamonaviy sanoat va rejalashtirish sohalarida katta ehtiyoj bilan qabul qilinadigan turli texnik bilim, tajriba va qobiliyatlarga ega kishilar uyushmasidir.

Sotsiolog tadqiqotchi J. K. Galbreytning fikriga ko‘ra, “deyarli barcha qarorlar qabul qilish jarayonlari alohida imtiyozlarga ega bo‘lgan texnotuzilmaviylik hisobiga amalga oshiriladigan bo‘ldi” [12; 124]. U fikrini davom ettirib, “davlat texnotuzilmaviylikning ijroiya qo‘mitasi bo‘lib qoldi, xolos” [13; 223], deb yozadi.

Biroq bu davlat o‘z mavqeini yo‘qotib bormoqda, degani emas. Faqat endilikda davlat o‘zining boshqaruv vazifalarini tubdan o‘zgartirishi zarurati yuzaga kelmoqda. Bugungi kunda aytish mumkinki, ko‘plab an’anaviy jamiyatlardagi asosiy muammo ham aynan shunda. Ya’ni davlat tuzilmalari hanuz an’anaviy boshqaruv stereotiplaridan xalos bo‘la olmayapti yoki bunday holatdan voz kechish ular uchun qiyin kechmoqda.

Shu sababli globallashuv jarayonida milliy qadriyatlarning transformatsiyasi, ya’ni bir shakldan boshqa shaklga o‘tishi aynan shu nuqtada turli kelishmovchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Chunki postindustrial jamiyatning asosiy “qahramonlari” bo‘lgan intellektual salohiyat vakillari globallashuv sharoitida yagona qadriyatlar tizimini shakllantirishga intilmoqdalar.

Futurolog-sotsiolog D. Bell o‘zining “Yaqinlashib kelayotgan postindustrial jamiyat” kitobida quyidagilarni yozadi:

“Postindustrial jamiyatda hokimiyat endi xususiy mulkka emas, balki bilimga tayanadi. Yetakchi sinf sifatida sahnaga olimlar, injenerlar va texnika mutaxassislari chiqadilar; yetakchi o‘rinlarni intellektual tashkilotlar (universitetlar, tadqiqot institutlari, sanoat laboratoriyalari) egallaydilar. Iqtisodiyot, birinchi navbatda, moddiy mahsulotlarga emas, xizmat ko‘rsatishga asoslanadi. Siyosiy qarorlar faqat ratsional-texnik fikrlarga asoslanadi, bu esa “mafkuraning tamom bo‘lganligini” bildiradi. Kishilar ijtimoiy qadriyatlar munosabatlarida umumiy konsensusga (munozarali savol va nizolarni kelishuv asosida hal etish) erishadilar, mutaxassislar ratsional uslublarga tayanib, tizimli tahlil va qarorlar qabul qilishga moslashadilar. Qisqacha qilib aytganda, bizni professional boshqaruvchilar va texnokratlar davri kutmoqda” [14; 119].

Bugungi kunda hech kimga sir emaski, rivojlangan mamlakatlarda postindustrial jamiyat davri hukm surmoqda. Shu sababli ham butun dunyo bo‘ylab iste’dodli va yuqori intellektual salohiyatga ega tadqiqotchi hamda mutaxassislarni ushbu jamiyatlar tobora o‘zlariga jalb qilib bormoqdalar. Bu esa ularning ilmiy va ijodiy faolligi asosida milliy qadriyatlarning transformatsiyalashuvini yanada tezlashtirmoqda.

Aslida, axborot asrining yetakchi ishtirokchilari ham intellektual qatlam vakillaridir. XXI asrning birinchi o‘n yilligida ta’lim olish diplomli mutaxassis bo‘lishning asosiy vositasi sifatida qaralgan bo‘lsa, so‘nggi o‘n yillikda raqobatbardosh ta’lim omili birinchi o‘ringa chiqdi. Iste’dodli va qobiliyatli yoshlar “milliy chegaralar”ni bosib o‘tib, ba’zan virtual ta’lim, ba’zida esa grant loyihalari orqali intellektual migrantlarga aylanib bormoqdalar.

Ta’kidlanganidek, intellektual migratsiya kishilik tarixining barcha bosqichlarida kuzatilgan hodisalarning takrorlanishini namoyon etadi. Tarixda kuzatilganidek, yuqori malakali mutaxassislarning ish izlash yoki o‘z salohiyatini namoyon etish maqsadida turli chegaralarni bosib, uzoq hududlarga ketishlari ko‘pincha murakkab sharoit va zarurat ta’sirida yuzaga kelgan.

## XULOSA

Fikr va mulohazalarimizni yakunlar ekanmiz, O‘zbekiston globallashuv jarayonida qanday ishtirok etishi kerak, degan savol yuzasidan o‘z mulohazalarimizni bildirishni lozim deb topdik. Bunda quyidagi jihatlarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq:

- Yosh avlodning o‘zbek tilini mukammal va sof bilishi bilan bir qatorda, ingliz tilini ham professional darajada o‘zlashtirishiga erishish. Aynan shundagina milliy qadriyatlarni nafaqat saqlab qolish, balki ularni jahon miqyosida muayyan darajada targ‘ib etish va eksport qilish imkoniyatiga ega bo‘linadi. E’tibor beradigan bo‘lsak, bugungi kunda O‘zbekiston telekanallarida namoyish etilayotgan koreys, yapon va hatto xitoy filmlari hamda seriallarining aksariyati ingliz tilidan tarjima qilinmoqda.

- Globallashuv sharoitida asosiy yetakchi va himoyachi kuch intellektual salohiyat ekanligi zamonaviy fanda o‘z isbotini topmoqda. Shu sababli jamiyatda jismoniy mehnat va tashkilotchilikni targ‘ib qilish bilan bir qatorda, ijodiy-intellektual mehnatni sevish, qadrlash hamda rag‘batlantirishga qaratilgan g‘oyalarni ilgari surish zarur.

- Globallashuv tabiiy jarayon ekanligini hisobga olgan holda, mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy imkoniyatlarini belgilab beradigan intellektual salohiyatli kishilar va texnik mutaxassislarga keng imkoniyatlar yaratish, ularning mehnat va yashash sharoitlarini yaxshilash, ayniqsa, intellektual migratsiya jarayonlarida ishtirok etishga bo‘lgan intilishning haddan tashqari kuchayib ketishining oldini olish choralarini izlab topish lozim. Negaki, globallashuv sharoitida, asosan, aynan shu qatlam vakillari milliy qadriyatlarni himoya qilish imkoniyatiga egadirlar.

- Milliy ta’lim tizimini bugungi kunda ko‘p kuzatilayotgan, shartli ravishda “Harflar qayerga ketdi?” deb nomlanayotgan qo‘rqitish va bosimga asoslangan byurokratiyadan butunlay xalos etish hamda ilmiy tafakkurni targ‘ib qiluvchi, sokin va samarali byurokratik boshqaruv tizimi orqali tartibga solish zarur.

- Keng jamoatchilik fikriga quloq tutish, ijtimoiy fikrni hurmat qilish madaniyatini shakllantirish, doimiy ravishda sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazish va ularning ilmiy natijalari asosida istiqbolli prognozlarni ilgari surish mamlakatning globallashgan dunyodagi faol ishtirokini ta’minlab beradi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Статистика қўмитасининг ФЖШМҚМИ томонидан 2013, 2015 ва 2019 йилларда ўтказилган социологик тадқиқотлар натижалари (2008–2018 йиллар маълумотлари).

2. Лебедева М. М. Интеллектуальная миграция в современном мире // Миграционные процессы в конце XX – начале XXI вв. Основные причины и особенности современной интеллектуальной миграции. – М.: МГИМО Университет, 2014. – С. 8.

3. Стиглиц Дж. Глобализация: тревожные тенденции. – М., 2004. – С. 11.

4. Социологические исследования // Журнал. – 2024. – № 3. – С. 5.

5. Кляшторина В. Б. Иран 60–80-х годов. От культурного плюрализма к исламизации духовных ценностей. – М.: «Наука», 1990. – С. 98.

6. Свободная мысль – XXI // Журнал «Экономика». – 2024. – № 11. – С. 64–65.

7. Яковец Ю. В. Глобализация и взаимодействие цивилизаций. – М.: «Экономика», 2003. – С. 3–4.

8. Свободная мысль – XXI // Журнал «Экономика». – 2024. – № 11. – С. 64.

9. Бжезинский З. Выбор: мировое господство или глобальное лидерство. – М.: «Международные отношения», 2004. – С. 175–176.

10. Кастельс М. Информационная эпоха. – М., 2000. – С. 511.

11. Гэлбрейт Дж. К. Новое индустриальное общество. – М., 1969. – С. 124.